

**MUSIQA TA'LIMI YO'NALISHIDA IJRO MAHORATINI TASHKIL  
ETISH ORQALI TALABALARDA KASBIY MAHORATINI  
SHAKLLANTIRISH YO'LLARI**

*Nishonova Shahzoda Murodjon qizi*

*Toshkent davlat Nizomiy nomidagi pedagogika universiteti*

*Musiqta'limganliq yo'naliishi magistratura bo'lumi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada musiqa ta'limganliq yo'naliishi talabalarida kasbiy mahorat va bilimlarni innavatsion faoliyat hamda psixologik metodlar bilan shakllantirish yo'llari haqida fikr mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Musiqa o'qituvchisi, kasbiy mahorat, barkamol avlod, ma'naviyat, musiqa madaniyati, pedagogika, psixologiya, kasbiy metodika, pedagogik mahorat.

**Ways of forming professional skills in students by organizing performance skills in the field of music education**

**Nishonova Shahzoda Murodjonovna**

Tashkent State Pedagogical University Master's student of Music Education

**Abstract:** In this scientific article, opinions are expressed about ways of forming professional skills and knowledge of music education students with innovative activities and psychological methods.

**Key words:** music teacher, professional skills, mature generation, spirituality, music culture, pedagogy, psychology, professional methodology, pedagogical skills.

**Kirish:** Yurtimizdagagi barcha sohalar qatorida madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirishga ham ulkan e'tibor qaratilib kelinmoqda bu borada keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

*Davlatimiz rahbari shunday deydilarki "Mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyatda rivojlanish bo'lmaydi. Millatimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma'noda, madaniyat – bu xalqimiz, jamiyatimizning qiyofasidir. Biz O'zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimiz va san'atni rivojlanirishimizdan boshlashimiz lozim" degan edilar Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev.*

Insonlarni nafosat va go'zallik olamiga olib kiruvchi musiqa san'ati ko'p tarmoqliligi bilan boshqa yo'naliishlardan ajralib turadi. San'at va musiqa sohasida faoliyat yuritayotgan har bir insondan ijodkorlik, yaratuvchanlik, bunyodkorlik, kasbiy fidoyilik kabi fazilatlar doimiy ravishda talab etiladi. Buning uchun avvalo har bir san'atkor va musiqachilar o'z ijro mahoratlarini o'stirishda mustaqil ta'limgani

to'g'ri yo'lga qo'ya bilishi lozim.

Musiqa yo'naliishida faoliyat olib borayotgan pedagoglar bilan suhbatta shu narsaga ishonch hosil qilamizki talabalarga cholg'u so'zini havaskorlik darajasida ijro etishni, har qanday musiqiy asarni mustaqil o'rganish uchun, yetarli darajada musiqa savodini, asarni taxlil qilish, varoqdan o'qishni o'rgatish zarur. Musiqa ta'lim muassasalarini bitirgan talabalar mustaqil kasbiy faoliyatga qodir emas. Kamchiliklar orasida cheklangan bilim mavjud musiqa madaniyati va san'ati sohasi, musiqa ta'limi metodikasi, konsertmeysterlar ijro mahorati yetarli emas. Topshiriqlarni o'qituvchi rahbar yordamida keyinchalik esa o'z holicha bajarish orqali talabalarda mustaqil ishlash qobilyatini oshirish mumkun. Talabaga musiqiy tarbiya berishning ikkita muhim omilini eslab o'tish zarur.

1.Tovushni oxirigacha tinglash.

2.Gorizantal harakat va musiqani rivojlanishini sezish ko'nokmalari.

Musiqa pedagogikasida ritm hissini tarbiyalash va rivijlantirishga yordam beradigan bir nechta usullar ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiq etilgan. Musiqiy ta'limning oliy maqsadi yoshlarda haqiqiy musiqiy madaniyatni shakillantirishdir. Ushbu madaniyatning eng muhimlari musiqiy idrok, musiqiy did, musiqiy tafakkurdan, iborat.

#### **REFERENCES:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., Ma'naviyat, 2008, 176-b.
2. Асафьев Б. В. Музыкальная форма как процесс. Л.: Госуд. муз. изд., 1971г. с 372
3. Soipova D. Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi. Т., 2009. 225-b.
4. Маҳкамова, Ш. Р. (2020). МУСИҚА ИЛМИ ВА ИСЛОМ ДИНИ: ТАЛҚИН МУАММОСИ. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 1331-1334.
5. Қораев, С. Б. (2020). Профессионал таълимда ўқув амалиётларини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари.